

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/28.08.2024.F.05.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**KARIMOV G‘ULOMNAZIR XOLMATXONOVICH**

**O‘ZBEKISTONDA VIJDON ERKINLIGINING MUSTAHKAMLANISH  
DINAMIKASI: IJTIMOY-FALSAFIY DISKURS**

**09.00.04 – Ijtimoiy-falsafa**

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2025**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
philosophical sciences**

**Karimov G‘ulomnazir Xolmatxonovich**

О‘zbekistonda vijdon erkinligining mustahkamlanish dinamikasi: ijtimoiy-falsafiy diskurs..... 3

**Каримов Гуломназир Холматхонович**

Динамика укрепления свободы совести в Узбекистане: социально-философский дискурс ..... 21

**Karimov Gulomnazir Xolmatxonovich**

Dynamics of strengthening freedom of conscience in Uzbekistan: socio-philosophical discourse..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 45

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/28.08.2024.F.05.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**KARIMOV G‘ULOMNAZIR XOLMATXONOVICH**

**O‘ZBEKISTONDA VIJDON ERKINLIGINING MUSTAHKAMLANISH  
DINAMIKASI: IJTIMOY-FALSAFIY DISKURS**

**09.00.04 – Ijtimoiy-falsafa**

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Fal1483 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Farg‘ona davlat universiteti veb-sahifasi (www.fdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ganiyev Baxodirjon Sadikjanovich**  
falsafa fanlar doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdumalikov Abdulatif Abidjonovich**  
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),  
professor

**Abdusattorov Baxtiyor Mamarasulovich**  
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/28.08.2024.F.05.08 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy. Tarix fakulteti, 2-qavat, 219-xona. Tel.: (99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu\_info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ - raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy, ARM binosi. Tel.: (99873) 244-44-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**M.A.Mamatov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, falsafa fanlar doktori (DSc),  
professor

**S.U.Yuldashev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, falsafa fanlar doktori (DSc),  
dotsent

**B.S.Ganiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda vijdon erkinligi muammosi XXI asrda inson huquqlari tizimining ajralmas qismi, ijtimoiy barqarorlik, fuqarolik jamiyati va demokratik tuzumning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bugungi shiddat bilan kechayotgan globallashtirish jarayonida umumbashariy taraqqiyotga jiddiy to'siq bo'layotgan g'oyalari, inson ongi va ma'naviy borlig'ini egallash uchun mafkuraviy kurash, destruktiv jarayonlarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli vijdon erkinligi va din e'tiqod erkinligini fundamental erkinlik sifatida tasdiqlab, unga asosiy insoniy huquq deb qaralmoqda. Ijtimoiy-falsafiy darajaga ko'ra jamiyatda tinchlik, murosaviylik va fuqarolik birdamligini shakllantirish vositasi sifatida vijdon erkinligini insonning o'zini jamiyatda anglash va unga munosabat bildirish huquqidir, u insonni inson qiladigan erkinliklar sifatida dolzarb ahamiyatga ega hisoblanmoqda.

Dunyoda vijdon erkinligi va e'tiqod mustahkamligiga doir empirik va fundamental ahamiyatga ega ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Vijdon erkinligi masalasi bugungi kunda global darajada nafaqat huquqiy va siyosiy muammo, balki ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va ong bilan bog'liq fenomen sifatida o'rganilmoqda. Ularda insoniy qadriyatlardan chiqib soxta dindorlik g'oyalari bilan integratsiyalashuv, diniy fundamentalizm va ekstremizmga qarshi islom qadriyatlari va ma'naviy me'rosining ahamiyatiga alohida e'tibor berilmoqda. Yetakchi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlarida e'tiqod, vijdon va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tadqiq etilmoqda. Jumladan, Religion, Law and Public Ethics<sup>1</sup> loyihasi doirasida e'tiqod, sekulyar axloq va qonun o'rtasidagi aloqalarni tadqiq etishga oid tadqiqotlarga obektiv zaruriyatni vujudga keltirmoqda.

Mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, diniy bag'rikenglikni targ'ib qilish va inson huquqlarini ta'minlash borasida sezilarli islohotlarni amalga oshirmoqda. "Biz jamiyatimizda har qanday radikallashtirishga, yoshlarimiz ongini buzg'unchi yot g'oyalari bilan zaharlashga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga, ma'rifat o'rnini jaholat egallashiga yo'l qo'ymaymiz. Buning uchun nafaqat mas'ul tashkilotlar, balki barchamiz birgalikda muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatini ochib berish, farzandlarimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo'yicha oila, mahalla va ta'lim maskanlarida ish olib borishimiz zarur"<sup>2</sup>. Bu esa O'zbekistondagi huquqiy-demokratik islohotlar fonida vijdon erkinligini falsafiy asosda qayta baholash, uni ijtimoiy ongdagi muhim qadriyatga aylantirish yo'lida xalqaro ilmiy diskursga milliy falsafiy pozitsiyani olib kirish imkonini yaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 5-iyundagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'RQ-699-son va 2025-yil 25-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi O'RQ-1037-sonli Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi "Diniy-ma'rifiy

<sup>1</sup><https://digitalcommons.tourolaw.edu/scholarlyworks/107/#:~:text=In%20recent%20years%2C%20scholars%20hav e,issues%20in%20the%20United%20States.>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi" gazetasi, 2022-yil 20-dekabr, №272 (8334), - B.3.

soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5416-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2025-yil 21-apreldagi "Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma'rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-68-sonli Farmonlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga mazkur dissertasiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot Respublika ilm-fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini takomillashtirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev<sup>3</sup>ning jamiyatni yanada demokratiyalashtirish, vijdon erkinligi, diniy bag'rikenglik hamda inson huquqlarini ta'minlash masalasida amalga oshirilayotgan islohotlari, asar va nutqlarida belgilangan vazifalar tadqiqotning ilmiy-metodologik asosi hisoblanadi.

Vijdon erkinligi Qadimiy falsafiy tafakkurda axloqiy tanlov, ezgulik va erkin fikrlash masalalari bilan bog'liq holda shakllanib kelgan. Bu to'g'ridan-to'g'ri "vijdon" atamasi bilan ifodalanmasa-da, insonning axloqiy erkinligi, ongli harakati va ijtimoiy javobgarligi doirasida ko'rib chiqilgan. Suqrot<sup>4</sup> erkin fikrlashni insoniy fazilat deb atagan va o'z e'tiqodini ifoda etgani uchun o'limga mahkum etilgan. Arastu<sup>5</sup> tomonidan axloqiy qarorlar insonning ongli faoliyatidan kelib chiqishini ta'kidlab, shaxsiy tanlov va axloqiy mas'uliyatni asosiy tamoyil deb ta'kidlagan. Seneka, Epiktet<sup>6</sup>lar esa insonning ichki erkinligini tashqi sharoitlardan mustaqil "vijdon sadosi" sifatida talqin qilgan.

Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Farobiy va Ibn Xoldun<sup>7</sup>larning asarlarida vijdon erkinligi, inson huquqlarini ta'minlashdagi xonning odilligi bilan birga insonlarning o'z burchini raiyat uchun sadoqat bilan vijdonan bajarishi e'tirof etilgan.

---

<sup>3</sup> Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - B. 592.; Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faolyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018. - B. 508.; Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. - B. 400.; Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. 4-jild. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2020. - B. 456.; Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va forovon yashaylik. 5-jild. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2023. - B. 408.; Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2023. - B. 520.; Mirziyoyev Sh.M. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. 7-jild. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2023. - B. 392.; Mirziyoyev Sh.M. Bir bo'lsak - yagona xalqimiz, birlashsak - vatanimiz. 8-jild. - Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2024. - B. 344.

<sup>4</sup> Платон Государство. Диалоги. Апология Сократа. - Москва: Эксмо, 2024. - С. 736.

<sup>5</sup> Аристотель Никомахова этика (Пер. с древнегреч.) - Москва: Book on Demand Ltd., 2018. - С. 450.

<sup>6</sup> Л.А.Сенека Нравственные письма к Луцилию (Пер. с лат., вступ. ст. и комм. А.А.Столяра.) - Москва: АСТ, 2021. - С. 832.; Эпиктет Беседы. Энхиридион (Пер. с древнегреч., вступ. ст. и комм. А.А.Тахо-Годи.) - Москва: Эксмо, 2022. - С. 416.

<sup>7</sup> Абу Nasr Форобий Фозил одамлар шахри (Таржимонлар: Абдусодиқ Ирисов, Маҳкам Маҳмудов, Урфон Отажон) - Тошкент: "Янги аср авлоди" нашриёт-матбааси, 2022. - С. 320.; Абдурахмон ибн Муҳаммад ибн Халдун Муқаддима (матн) тарихий. - Тошкент: "Trust and support", 2025. - Б. 400.

Yevropa Uygʻonish davri va maʼrifatchilik davrida vijdon erkinligi diniy absolutizmga qarshi inson shaxsiyatining daxlsizligi tamoyili sifatida talqin etilgan. Jumladan, Jon Lokk<sup>8</sup> ilk bor diniy bagʻrikenglik va vijdon erkinligini fuqarolik jamiyatining asosiy tamoyili sifatida asoslagan. F.-M.Volter, Sh.-L.Monteskye, J.-J.Rousseau<sup>9</sup> kabi fransuz mutafakkirlari ham erkin eʼtiqod va fikr bildirish huquqini insoniy tabiatning ajralmas qismi deb taʼkidlagan. I.Kant vijdonni “ichki axloqiy qonun”<sup>10</sup> deb atab, uni insonning tabiati va hurfikrlikning negizi sifatida baholashgan. Zamonaviy Gʻarb falsafasiga koʻra J.Rawls<sup>11</sup> vijdon erkinligini demokratik jamiyatda barqarorlikni saqlovchi asosiy prinsip sifatida, M.Nussbaum<sup>12</sup> erkinlikni “inson qobiliyatlari” doirasida asosiy axloqiy shart deb hisoblasa, Ch.Taylor va G.Spivaklar<sup>13</sup> esa vijdon va eʼtiqodni madaniy xilma-xillik, shaxsiy identitet sifatida tadqiq etilgan.

MDH davlatlarida tadqiqotlar sovet davrida din va vijdon erkinligi ideologik sabablar bilan cheklangan boʻlsa-da, mustaqillikdan soʻng bu masalaga yangicha yondashuv shakllandi. V.I.Garadja, A.V.Guseynov va T.I.Oyzerman<sup>14</sup> kabi falsafiy oqim vakillari vijdon erkinligini ong va fuqarolik etukligi nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. “Rossiyada din va vijdon erkinligi”<sup>15</sup> kabi tadqiqotlarda fuqarolik jamiyatida diniy erkinlik va vijdon munosabatlari yoritilgan. Bundan tashqari Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Ozarbayjonda ham bu mavzuda davlat siyosati, din va maʼnaviyat masalalarida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mustaqillikdan keyingi davrda Oʻzbekistonda vijdon erkinligi masalasi, asosan, huquqshunoslik, siyosatshunoslik va diniy-maʼrifiy faoliyat doirasida tadqiq etilgan. Hususan A.Saidov, N.Joʻrayev, R.Alimov, K.Xojiyev, D.Islomovalar<sup>16</sup> din va jamiyat munosabatlarini, davlat va diniy tashkilotlar oʻrtasidagi muvozanatni huquqiy va maʼnaviy nuqtai nazardan oʻrganganlar. Ammo bu tadqiqotlar, asosan: konstitutsiyaviy huquqlar, diniy bagʻrikenglik, diniy tashkilotlar faoliyati, fuqarolik jamiyati institutsional shakllari doirasida olib borilgan. Vijdon erkinligining falsafiy mohiyati, uning ontologiyasi, aksiologiyasi, ijtimoiy ongdagi shakllanishi va maʼnaviy-madaniy qadriyat sifatidagi evolyutsiyasi hali keng va chuqur tadqiq etilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tashkilot yoki taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Fargʻona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 01-1-345-son “Oʻzbekistonning barqaror strategik taraqqiyotida fuqarolik

<sup>8</sup> John Locke A Letter Concerning Toleration. - Grapevine Publishing, 2023. - P. 150.

<sup>9</sup> Вольтер. Трактат о веротерпимости (Пер. с франц. Н.М.Соколова.) - Москва: Юрайт, 2021. - С. 177.; Ш.-Л.Монтескье О духе законов (Пер. с франц. В.С.Нерсисянца.) - Москва: Наука, 1999. - С. 884.; Ж.-Ж.Руссо Об общественном договоре, или Принципы политического права (Пер. с франц. Н.П.Полторацкого.) - Москва: Канон+, 2020. - С. 208.

<sup>10</sup> И.Кант Критика практического разума (Антология мысли). (Пер. с нем. Н.М.Соколова.) - Москва: Юрайт, 2021. - С. 177.

<sup>11</sup> Джон Роулз Политический либерализм. - Москва: Прогресс-Традиция, 2000. - С. 576.

<sup>12</sup> M.C.Nussbaum Liberty of Conscience: In Defense of America's Tradition of Religious Equality. - New York: Basic Books, 2010. - P. 416.

<sup>13</sup> Charles Taylor The Ethics of Authenticity. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 2018. - P. 160.; G.C.Spivak Can the Subaltern Speak? - London: Routledge Classics, 2021. - P. 160.

<sup>14</sup> Mazkur mualliflar asarlari dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati”da keltirilgan.

<sup>15</sup> [https://iphras.ru/print\\_2005.htm](https://iphras.ru/print_2005.htm)

<sup>16</sup> Mazkur mualliflar asarlari dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati”da keltirilgan.

jamiyatini yanada rivojlantirish va ma'naviy-axloqiy xavfsizlikni ta'minlash konsepsiyalarining ahamiyati" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O'zbekistonda vijdon erkinligi takomillashuvining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini asoslab berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

vijdon erkinligi tushunchasining aksiologik mohiyatini falsafiy tahlil qilish, uni inson qadri, axloqiy tanlov va shaxsiy bog'liq konsept sifatida asoslab berish;

jamiyatda vijdon erkinligining tarixiy shakllanish bosqichlarini ijtimoiy-falsafiy kontekstdan kelib chiqib o'rganish, ayniqsa mustaqillik davridan keyingi islohotlar fonida baholash;

vijdon erkinligining ijtimoiy ongda va madaniy qadriyatlar tizimidagi o'rnini tahlil qilish, uni jamiyatdagi barqarorlik, bag'rikenglik va fuqarolik madaniyati bilan uyg'unlikda talqin etish;

O'zbekiston tajribasini xalqaro falsafiy diskurslar bilan solishtirish, vijdon erkinligini mustahkamlash yo'lida konseptual asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida jamiyatigi ijtimoiy munosabatlar tizimining shakllanish jarayonlari tashkil etadi.

**Tadqiqot predmeti.** O'zbekistonda vijdon erkinligining rivojlanish jarayonlari tashkil etadi.

**Tadqiqot uslubi.** Dissertasiyada tarixiylik, mantiqiylik, tizimli, analitik, statistic, empirik tadqiqotlar va qiyosiy tahlillar usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

vijdon erkinligining aksiologik mohiyati ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida (huquqiy norma, axloqiy tanlovi va ma'naviy daxlsizligi) jamiyatdagi axloqiy muvozanatlarni saqlovchi ko'rsatkich ekanligi ochib berilgan;

jamiyatda vijdon erkinligining tarixiy shakllanish bosqichlari (mustaqillik davridan keyingi islohotlar va taraqqiyotning yangi bosqichida)ni ijtimoiy-falsafiy jihatlarini asoslangan;

vijdon erkinligining ijtimoiy ong va jamiyatdagi qadriyatlar tizimidagi falsafiy o'rni axloqiy mezon (shaxsiy axloqiy mezonlar va madaniy axloqiy mezonlar)lar sifatidagi zarurati ochib berilgan;

O'zbekiston tajribasi global falsafiy qarashlar bilan qiyosiy tahlil qilinib, vijdon erkinligini milliy ijtimoiy-falsafiy model doirasida konseptual asoslashga xizmat qiluvchi yangicha yondashuvlar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda vijdon erkinligi va diniy bag'rikenglikni mustahkamlashga qaratilgan davlat dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunni ijtimoiy-falsafiy talqin asosida yanada rivojlantirishga oid ilmiy takliflar ishlab chiqildi. Ushbu tadqiqot natijalari diniy bag'rikenglik, tolerantlik, dunyoviylik va fuqarolik jamiyatini mustahkamlash masalalariga oid ma'naviy-ma'rifiy dasturlarni ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin.

Vijdon erkinligini ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy asoslari jamiyatda diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda,

tolerantlikni mustahkamlashda va turli konfessiyalararo hamkorlikni rivojlantirishda muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot xulosalari O‘zbekistonning “Yangi O‘zbekiston - Uchinchi Renessans sari” strategiyasi va “O‘zbekiston - 2030” taraqqiyot strategiyasi doirasida e’tirof etilgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlarga uyg‘un bo‘lib, ilmiy loyihalarni amalga oshirishda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferentsiyalarda muhokama qilingani, xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati vijdon erkinligini fuqarolik jamiyatining asosiy tamoyili sifatida ko‘rib, erkin e’tiqod, fikrlar xilma-xilligini hurmat qilish, mas’uliyatli jamiyat tuzilmalarini rivojlantirish vositasi sifatida asoslab berishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekiston sharoitidagi tarixiy tajriba va axloqiy qadriyatlarni uyg‘unlashtirgan holda ijtimoiy muvozanatni ta’minlovchi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga asos bo‘luvchi tegishli fanlardan darslik va o‘quv-qo‘llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Vijdon erkinligining aksiologik mohiyati ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida (huquqiy norma, axloqiy tanlovi va ma’naviy daxlsizligi) jamiyatdagi axloqiy muvozanatlarni saqlovchi ko‘rsatkich ekanligiga oid yangiliklaridan O‘zbekiston Respublikasi Musulmonlar idorasining targibot va tashviqot faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Musulmonlar idorasining 2025 yil 21-maydagi 02-08/1374-son Ma’lumotnomasi). Natijada fuqarolar ongida huquqiylik, qonunlarga xurmat tamoyilining bugungi kunda O‘zbekistondagi vijdon erkinligi va diniy bagrikenglik shaxs madaniyatining muhim elementlaridan biri ekanligini asoslash, siyosiy chiqish va mojarolarni yangicha yondashuvlar asosida siyosiy savodxonlik va ijtimoiy intizomini oshirishga xizmat qilgan;

vijdon erkinligi tushunchasi O‘zbekiston jamiyatining tarixiy-madaniy rivojlanish kontekstida yangicha falsafiy talqinda asoslab berildi. Diniy tasavvur nafaqat huquqiy me’yor, balki ijtimoiy ong, ma’naviyat va shaxsiy axloqiy tanlov sifatida konseptual ravishda sharhlab chiqildi. Jamiyatimizda vijdon erkinligi evolyutsiyasining bosqichlarining shakllanishi bilan uyg‘un holda tizimli falsafiy tahlil qilindi. Bu jarayonda sovet davridan mustaqillik va “Yangi O‘zbekiston” davrigacha bo‘lgan bosqichlarda ijtimoiy ongdagi o‘zgarishlar aniqlab berildi. (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2025-yil 9- iyundagi 604-son Ma’lumotnomasi). Natijada fuqarolarimiz, ayniqsa yoshlarlar o‘rtasida e’tiqodi, diniy dunyoqarashida jamiyatimiz tolerantlikni qaror toptirish jarayonlariga, mamlakatimizni ijtimoiy barqaror rivojlanishiga mustaqil munosabatlarining shakllanishi, ularda faol fuqarolig positsiyasini mustahkamlanishiga xizmat qilgan;

jamiyatda vijdon erkinligining tarixiy shakllanish bosqichlari (mustaqillik davridan keyingi islohotlar va taraqqiyotning yangi bosqichida)ni ijtimoiy-falsafiy jihatlariga oid ilmiy yangiliklaridan O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi huzuridagi Mahalla akademiasining diniy e’tiqod erkinligi va dunyoviylik prinsipining ijtimoiy muvozanatga asoslangan ish faoliyatida foydalanilgan. (O‘zbekiston

Mahallalari uyushmasi huzuridagi mahalla akademiyasining 2025 yil 23-iyundagi 01-03/16-sonli Dalolatnomasi). Natijada, yoshlar dunyoqarashida jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy transformatsiyalashuvining barqaror rivojlanish munosabatlarining shakllanishiga, ularning jamiyatga nisbatan pozitiv yondashuvi, vijdon erkinligi va tolerantlikni ratsional mazmun mohiyatini anglashi hamda ma'naviy yuksalishiga samarali xizmat qilgan;

vijdon erkinligining ijtimoiy ong va jamiyatdagi qadriyatlar tizimidagi falsafiy o'rni axloqiy mezon (shaxsiy axloqiy mezonlar va madaniy axloqiy mezonlar)lar sifatidagi zaruratiga oid ilmiy yangiliklaridan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-2024-yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida tatbiq etilgan. (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2025-yil 9-iyundagi 604-son Ma'lumotnomasi). Natijada yoshlarlar o'rtasida e'tiqod va diniy dunyoqarashlarida tolerantlik va ijtimoiy barqarorlik munosabatlarining shakllanishi, ularda faol fuqarolik positsiyasini mustahkamlanishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferentsiyalarida ma'ruza ko'rinishida aprobasiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan, O'zbekiston Respublikasi OAKning doktorlik dissertatsiyalari chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda esa 4 ta maqola (3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallar) chop etilgan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertasiyaning hajmi 143 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, ob'ekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobasiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertasiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Vijdon erkinligi va diniy bag'rikenglik tushunchalarini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari”**, deb nomlanadi. Mazkur bobda vijdon erkinligi va diniy bag'rikenglikning nazariy va metodologik negizlari chuqur falsafiy tadqiq etilgan. Uning tarixiy ildizlari, shakllanish bosqichlari, g'arbiy va sharqiy tafakkurda tutgan o'rni, ularning zamonaviy ijtimoiy-falsafiy interpretatsiyasi tizimli ko'rib chiqiladi. Birinchidan, vijdon erkinligi tushunchasining ontologik va aksiologik mohiyati tahlil qilinib, uni faqat huquqiy erkinlik sifatida emas, balki insonning ichki axloqiy tanlovi va ma'naviy avtonomiyasi sifatida asoslashga urinishlar ko'rib chiqiladi. Xususan, I.Kant tomonidan vijdon “ichki axloqiy qonun” sifatida talqin qilinadi: “Vijdon bu inson ichidagi qonun, u o'ziga hisob berishga majbur etuvchi kuchdir”<sup>17</sup>. Shuningdek,

---

<sup>17</sup> И.Кант Критика практического разума (Антология мысли). (Пер. с нем. Н.М.Соколова.) - Москва: Юрайт, 2021. - С. 177.

D.Roulz vijdon erkinligini liberal-demokratik jamiyatda ko'plab e'tiqodlar orasidagi murosaviy mavjudlik tamoyili sifatida izohlaydi: "Vijdon erkinligi - insonni jamiyatda erkin va mas'uliyatli mavjudot sifatida tan olishdir"<sup>18</sup>.

Ikkinchidan diniy bag'rikenglik tushunchasining tarixiy-falsafiy shakllanishi tahlil qilinadi. J.Lokk tomonidan ilgari surilgan diniy tolerantlik g'oyasi, F.-M.Volter, J.-J.Rousseau va N.Berdyayev kabi mutafakkirlar asarlarida inson shaxsiyati va erkin tanloviga hurmat tamoyili orqali asoslanadi. "Diniy bag'rikenglik - bu boshqacha fikrlash va ishonchga ega bo'lgan odamga ham inson deb qaray olish fazilatidir"<sup>19</sup>. Uchinchidan ushbu ikki tushunchaning o'zaro munosabati, ya'ni vijdon erkinligi bilan diniy bag'rikenglik o'rtasidagi normativ-falsafiy bog'liqlik ko'rib chiqiladi. Bobda shuningdek, ularning jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik, ko'pmadaniyatli muhitda tinchlikni saqlashdagi o'rni, va fuqarolik ongidagi aks sadosi baholanadi.

Bob davomida komparativ, falsafiy-tahliliy va hermenevtik yondashuvlar orqali g'arb va sharq tafakkurida ushbu tushunchalarning turlicha anglanishi, ularning tarixiy kontekstda qanday shakllangani va hozirgi zamonda qanday yangi talqinlarga ega ekani ochib beriladi. Shuningdek, O'zbekiston huquqiy tajribasi (masalan, 2021-yilgi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun), islomiy tamoyillar va qadimiy turkiy dunyo qarashlari doirasida bu tushunchalarning madaniy-ma'naviy talqinlari ham ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. "Diniy bag'rikenglik - bu ijtimoiy ongning tolerant shaklidir, vijdon erkinligi esa uning individual-falsafiy ifodasidir"<sup>20</sup>. Vijdon erkinligi va diniy bag'rikenglik tushunchalariga milliy ijtimoiy-falsafiy pozitsiya asosida yondashuv shakllantirildi. Tadqiqotlar uchun konseptual asos bo'luvchi normativ-madaniy model ishlab chiqilishiga yo'l ochildi. Bu bob keyingi bo'limlarga empirik va metodologik asos bo'lib xizmat qilgan.

**"Jamiyat ijtimoiy taraqqiyotida vijdon erkinligining genezisi, rivojlanish bosqichlarining ijtimoiy-nazariy talqini"** nomli birinchi paragrafida vijdon erkinligining O'zbekistonda shakllanishi, ijtimoiy tarixiy ildizlari, evolyutsiyasi va uning falsafiy asoslari genezisi asosida tadqiq etilgan. Paragraf vijdon erkinligining qadimiy ijtimoiy ongda paydo bo'lishi, sovet mafkura davridagi cheklovlar va mustaqillikdan keyingi demokratik islohotlar jarayonidagi qayta tiklanish bosqichlarini qamrab oladi. Bu jarayonda inson shaxsining daxlsizligi, axloqiy erkinligi, tanlov huquqi va diniy e'tiqod kabi tamoyillar orqali vijdon erkinligi tushunchasining mohiyati o'zgarib borganligi ko'rsatiladi. Ayniqsa, vijdon erkinligi ijtimoiy adolat, bag'rikenglik, ma'naviy yuksalish va fuqarolik ongining shakllanishi bilan uzviy bog'liq ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida tahlil qilinadi.

Paragrafda quyidagi tamoyillar asosida tarixiy-bosqichli tahlillar amalga oshirilgan:

an'anaviy davr - diniy qarashlar ustuvor, vijdon tushunchasi axloqiy-ruhiy tozalik bilan bog'langan;

Sobiq ittifoq - davlat mafkurasi ustuvor, vijdon erkinligi ideologik doirada chegaralangan;

<sup>18</sup> Джон Роулз Политический либерализм. - Москва: Прогресс-Традиция, 2000. - С. 576.

<sup>19</sup> Вольтер. Трактат о веротерпимости (Пер. с франц. Н.М.Соколова.) - Москва: Юрайт, 2021. - С. 177.

<sup>20</sup> N.Jo'rayev Diniy bag'rikenglik va ma'naviy hayot. - Toshkent: 2012. - B. 45.

mustaqillikdan keyingi davr - konstitutsiyaviy huquqlar mustahkamlangan, vijdon erkinligi jamiyat taraqqiyotining omiliga aylana boshlagan. Ushbu paragraf ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida vijdon erkinligining tarixiy shakllanishini nafaqat faktlar, balki tushuncha va qadriyatlar taraqqiyoti nuqtai nazaridan izohlaydi. Tahlil jarayonida G‘arb va Sharq mutafakkirlarining qarashlari asosida vijdon erkinligi tushunchasining ko‘p qirrali falsafiy mazmuni yoritilgan. Zero “Erkinlik - bu inson ongi bilan bog‘liq hodisadir; vijdon esa ushbu erkinlikning axloqiy mezonidir”<sup>21</sup>. Bu esa bizningcha, ijtimoiy hayotga o‘z aksini topib ijobiy ta’sir qilgan.



1-rasm. “Vijdon erkinligi” tushunchasining ijtimoiy-falsafiy evolyutsiyasi

“Jamiyat ijtimoiy taraqqiyotida diniy bag‘rikenglikning ahamiyati va uni tadqiq etishning ijtimoiy-falsafiy asoslari” nomli mazkur paragrafda diniy bag‘rikenglikning ijtimoiy taraqqiyot jarayonidagi falsafiy ahamiyati yoritilib, uning ijtimoiy barqarorlik, madaniy murosaviylik, fuqarolik birdamligini shakllantirishdagi o‘rni tadqiq etilgan. Paragrafning asosiy maqsadi - diniy bag‘rikenglikni ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida anglash va uni tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslarini asoslab berishdan iboratdir. Tahlilda diniy bag‘rikenglik nafaqat diniy e’tiqodlar o‘rtasidagi murosa, balki turli e’tiqod va dunyoqarashga ega shaxslarning jamiyatda o‘zaro hurmat va totuvlikda yashashini ta’minlovchi ijtimoiy qadriyat sifatida talqin etiladi. Shuningdek, bu tushuncha vijdon erkinligi, shaxs daxlsizligi, pluralizm, sekulyarlik kabi tamoyillar bilan uzviy bog‘liq ekani o‘rganilgan.

<sup>21</sup> И.Кант Критика практического разума (Антология мысли). (Пер. с нем. Н.М.Соколова.) - Москва: Юрайт, 2021. - С. 83.

Paragrafda “bag‘rikenglik”ning shakllanishi va rivojlanishi quyidagi manbalar asosida bayon qilinadi: G‘arb mutafakkirlari (J.Lokk, F.-M.Volter, J.-J.Rousseau) diniy murosaning siyosiy erkinlik va fuqarolik tenglik bilan bog‘liq jihatlarini ochib berganlar; Sharq tafakkurida, xususan Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Farobiy merosida bag‘rikenglik - insoniylik va ma‘naviy yuksaklik belgisi sifatida talqin qilingan; zamonaviy ijtimoiy-falsafiy yondashuvlarda esa bu tushuncha ko‘pmadaniyatli jamiyatlarda tinchlikni saqlovchi mexanizm sifatida tahlil qilinmoqda (Taylor, Nussbaum, Yuval-Davis). “Bag‘rikenglik - bu e‘tiqodda bir xillik emas, balki e‘tiqodda xilma-xillikni insoniy qadriyatlar doirasida birga saqlab qolish madaniyatidir”<sup>22</sup>. Shuningdek, O‘zbekistondagi diniy bag‘rikenglik siyosatining shakllanishi, milliy qonunchilik va ijtimoiy ongda aks sadosi ham ijtimoiy-falsafiy tahlil ob‘ekti sifatida ko‘riladi. Paragrafda diniy bag‘rikenglikning ijtimoiy iqlimga ta‘siri, ekstremistik g‘oyalarga qarshi barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirishdagi roli ham yoritiladi.

Diniy bag‘rikenglik tushunchasiga falsafiy kategorik yondashuv shakllantiriladi; ijtimoiy tizimdagi barqarorlik, fuqarolik jamiyati va tolerantlik tamoyillari bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida tahlil qilinadi; tadqiqotda ushbu tushunchaning O‘zbekiston jamiyatidagi normativ qadriyatga aylanish dinamikasi asoslab beriladi.

Dissertasiyaning **“Mustaqillikni dastlabki davrida vijdon erkinligining shakllanishi va takomillashuvi”** deb nomlanuvchi ikkinchi bobida O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyingi ilk yillarda vijdon erkinligini ta‘minlash yo‘lida amalga oshirilgan siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-ma‘naviy islohotlar tizimli tarzda tadqiq etilgan. Bobning ijtimoiy-falsafiy mohiyati shundan iboratki, u vijdon erkinligini faqat konstitutsiyaviy norma sifatida emas, balki shaxs va jamiyat o‘rtasidagi axloqiy-madaniy munosabatlar negizi sifatida izohlaydi. Tahlillarda aynan 1990-yillarda vujudga kelgan mafkuraviy bo‘shliqni to‘ldirish, jamiyatning diniy-ma‘naviy uyg‘onishi, ijtimoiy ongda yangi identitet shakllanishi jarayonida vijdon erkinligi qanday ahamiyat kasb etgani falsafiy-nazariy asosda ko‘rsatib beriladi. Bu davrda e‘tirof etilgan asosiy tamoyil - har bir fuqaroning erkin e‘tiqod qilish, din tanlash yoki dinning istalgan shakliga amal qilmaslik huquqi bo‘lib, bu O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlandi: “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xoxlagan dinga e‘tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmasligi huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”<sup>23</sup>.

Mazkur bobda shuningdek, mustaqillikning ilk yillarida qabul qilingan quyidagi huquqiy asoslar ijtimoiy-falsafiy talqinda ko‘rib chiqiladi: 1991-yil 14-iyun - “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi birinchi qonun, 1992-yil - yangi Konstitutsiya qabul qilinishi, 1990-2000 yillarda diniy tashkilotlar va nodavlat institutlar faoliyatini tartibga soluvchi qarorlar. Bu huquqiy asoslar doirasida jamiyatda diniy ekstremizm, mafkuraviy radikalizm va diniy cheklovlar o‘rniga murosa, bag‘rikenglik va erkin tanlov qadriyatlari shakllanib bordi. Bu esa vijdon erkinligini mafkuraviy emas, ijtimoiy murosaviy qadriyat sifatida baholash

<sup>22</sup> J.Locke A Letter Concerning Toleration. - London: Gale Ecco, Print Editions, 2018. - P. 150.

<sup>23</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent: Adolat, 2023. - B. 21.

zaruratini yuzaga chiqardi. Bobda vijdon erkinligining: normativ-huquqiy tomoni, madaniy-ma'naviy asoslari, ijtimoiy-falsafiy talqiniuzviy ravishda o'zaro bog'liq holda tahlil qilinadi. Xususan, G'arb mutafakkirlaridan J.Rawls, C.Taylorlarning, islom tafakkuri vakillaridan Al-G'azzoliy, Alisher Navoiylarning, va zamonaviy o'zbek olimlaridan A.Saidov, N.Jo'rayevlarning qarashlari asosida bu davrdagi vijdon erkinligi masalasi o'ziga xos falsafiy yondashuv bilan ochib beriladi. "Erkin vijdon va axloqiy tanlov insonni shunchaki huquq subyekti emas, balki ijtimoiy mas'uliyat egasiga aylantiradi"<sup>24</sup>. Bizningcha bu jarayon O'zbekiston mustaqilligi davrida shakllangan vijdon erkinligi tizimi ma'naviy uyg'onish, din va davlat munosabatlari, fuqarolik madaniyati kontekstida baholangan. Mustaqillik davri islohotlari orqali vijdon erkinligining ijtimoiy ongdagi aks sadosi va falsafiy qadriyat sifatidagi mohiyati ochib berilishi jamiyatidagi vijdon erkinligi siyosati xalqaro tolerantlik tajribasi bilan qiyosiy tarzda baholangan.

**"Milliy o'zlikni anglash jarayonida diniy bag'rikenglik masalasining ijtimoiy-madaniy dinamikasi"** nomli paragrafda O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishgan dastlabki yillarida yuzaga kelgan milliy o'zlikni anglash jarayoni va uning tarkibiy qismi sifatida diniy bag'rikenglik masalasining ijtimoiy-madaniy dinamikasi tadqiq etilgan. Ushbu davrda jamiyatning o'z tarixiy, madaniy va ma'naviy ildizlariga qaytishi, shu bilan birga diniy e'tiqod erkinligiga bo'lgan munosabatning yangilanishi falsafiy-nazariy asosda baholanadi.

Paragrafda asosiy masala diniy bag'rikenglik faqat diniy yo'l tutuvchilar o'rtasidagi murosaviylik emas, balki jamiyatda shakllanayotgan yangi fuqarolik identitetining muhim ma'naviy mezon ekanligi ochib berilgan. Bu davrda turli diniy e'tiqodlarga ega insonlar o'rtasida o'zaro hurmat, murosa va tolerantlik munosabatlarini shakllantirish jamiyatning ijtimoiy barqarorligi uchun strategik ahamiyat kasb etgan. Milliy o'zlikni anglash jarayonida diniy qadriyatlar, tarixiy meros va an'anaviy tolerantlik ruhining yangidan tiklanishi alohida urg'u bilan tahlil qilinadi. Xususan, o'zlikni anglash bilan bir qatorda diniy ekstremizm va mafkuraviy bo'shliqlarning oldini olishda bag'rikenglik siyosatining tutgan o'rni ko'rsatiladi. Shuningdek, paragrafda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tahlil olib boriladi: O'zbekiston tarixidagi diniy bag'rikenglik an'analari (Xorazm, Buxoro, Samarqand madaniyatlari doirasida); Islom tafakkuridagi pluralistik yondashuvlar (A.N.Forobiy, I.G'azzoliy, J.Rumiy); mustaqillikdan so'ng qabul qilingan qonunchilik asoslarida diniy murosa va inson huquqlariga doir tamoyillar. "Diniy bag'rikenglik - bu milliy o'zlikni o'zga fikr va e'tiqod bilan kurashmay, balki uni tan olib barqarorlikka erishish yo'lidir"<sup>25</sup>. Paragraf yakunida diniy bag'rikenglikning suveren taraqqiyotdagi roli faqat mafkuraviy emas, balki ijtimoiy-madaniy muvozanatni ta'minlovchi barqaror qadriyat sifatida izohlanadi. Bu esa uni milliy identitetning muhim falsafiy asoslaridan biri sifatida baholash imkonini beradi.

**"Jamiyatimizda sodir bo'layotgan globallashuv va modernizasiyalashuv jarayonlarida barqarorlik hamda tahdidlar misolida vijdon erkinligining o'rni"** nomli ikkinchi paragrafida O'zbekiston jamiyatida globallashuv va modernizatsiya jarayonlarining kuchayib borayotgan sharoitida vijdon erkinligining

<sup>24</sup> Джон Роулз Политический либерализм. - Москва: Прогресс-Традиция, 2000. - С. 112.

<sup>25</sup> N.Jo'rayev Diniy bag'rikenglik va ma'naviy hayot. - Toshkent: 2012. - B. 62.

ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli va shu bilan birga yuzaga kelayotgan tahdidlar bilan qanday bog'liqlikda namoyon bo'layotgani falsafiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Globallashuv - bu axborot, iqtisod, madaniyat, mafkura va dinlar oqimining tezlashgan sur'atda milliy chegaralardan o'tishi bo'lib, bu holat jamiyatda turli identitetlar, e'tiqodlar va qadriyatlar o'rtasida muvozanatni saqlash zaruratini keltirib chiqaradi. Modernizatsiya esa ma'naviy-siyosiy tizimda yangilanish, huquqiy ong va fuqarolik madaniyatini yuksaltirishni talab etadi. Ana shunday murakkab jarayonda vijdon erkinligi shaxsning ichki mustaqilligi, ijtimoiy tolerantlik, axloqiy mas'uliyat va ongli tanlov mezoni sifatida hal qiluvchi o'rin tutadi. "Globallashuv nafaqat imkoniyat, balki milliy o'zlik va axloqiy qarashlarga nisbatan sinovdir. Bu jarayonda erkin vijdon - insonni qadriyatlar ichida yo'qolib ketishdan saqlovchi ichki kompasdir"<sup>26</sup>.

